

O'rta muddatli byudjet amaliyotining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va uning tuzilishi

Husan Mansurovich Isayev
TDIU

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonda o'rta muddatli byudjetlashtirish muammolariga bag'ishlangan bo'lib, unda davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari, soliq tushumlari, o'rta muddatli byudjetlashtirish amaliyotini joriy etishning mazmun-mohiyati asoslari atroflicha yoritilgan. Shuningdek, o'rta muddatli byudjetlashtirish qanchalik darajada iqtisodiyotga zarurligi, ularni yanada takomillashtirish va ayniqsa davlat byudjetini shakllantirishda uning ahamiyati har bir mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim omillardan biri ekanligi ilmiy va amaliy misollar yordamida asoslangan.

Kalit so'zlar: davlat byudjeti, o'rta muddatli byudjetlashtirish, byudjet daromalari, byudjet xarajatlari, soliqlar, soliqsiz daromadlar

Socio-economic essence of medium-term budget practice and its structure

Khusan Mansurovich Isaev
TSUE

Abstract: This article is devoted to the problems of medium-term budgeting in Uzbekistan, in which the state budget revenues and expenses, tax revenues, and the essence of the introduction of medium-term budgeting practice are covered in detail. Also, it is based on scientific and practical examples to what extent medium-term budgeting is necessary for the economy, its further improvement, and especially its importance in the formation of the state budget is one of the important factors for the economy of every country.

Keywords: state budget, medium-term budgeting, budget revenues, budget expenditures, taxes, tax-free income

KIRISH

Iqtisodiyotning barqarorligi to'g'ridan-to'g'ri moliya tizimining rivojlanish darajasiga, shu jumladan davlat moliyasini rivojlantirish va boshqarish darajasiga bog'liq. Moliya tizimining asosiy bo'g'ini bo'lgan davlat moliyasi davlatning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, davlat mablag'larini qayta taqsimlashda,

moliya, transport va aloqa, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur dissertatsiya ishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish, davlat va jamiyatni rivojlantirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish, makroiqtisodiyot barqarorligini ta'minlash borasidagi barcha g'amxo'rliklarda olib borilmoqda.

Davlat byudjeti bilan bog'liq har qanday islohotlar tizimi puxta, keng tafakkur va ishonchli hisob-kitoblarga asoslanishi kerak. Davlat budjeti islohotlarining markaziy o'rnida byudjet loyihasini rejalashtirish eng muhim hisoblanadi, agar zarur bo'lsa, uni butun mamlakat taqdirini hal qiluvchi omil (ayniqsa, o'tish davridagi mamlakatlar uchun) sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Davlat o'zining oldiga qo'ygan buyuk maqsadlari va vazifalarini o'z vaqtida to'liq va ijobiy hal etishi uchun unga ma'lum miqdorda moliyaviy asos talab etiladi. Mazkur asosning markazini davlat byudjeti daromadlari shakllantiradi. Davlat moliyasini asosi hisoblangan davlat byudjeti daromadlarining barqarorligini, ularni shakllantirish manbalarini takomillashtirishni hamda butligini ta'minlash ishlari hozirgi bosqichda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan byudjet-soliq tizimidagi islohotlarda uchratishimiz mumkin.

Shu bilan birga, mamlakatimiz byudjetining keyingi yillar davomida defitsitda ekanligi, davlat byudjeti ixtiyorida bo'lishi lozim bo'lgan moliyaviy resurslarning o'tkazmaslik kabi holatlari, uning ko'zlagan maqsad va vazifalarini samarali bajarishiga to'sqinlik qilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish borasida soliqlar va soliqsiz daromadlarning o'rnini xususida ilmiy-nazariy qarashlar mavjud. Xususan byudjet daromadlari barqarorligiga erishish, davlat byudjetining daromadlari shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularning barqarorligini oshirilishi kabi dolzarb masalalar o'z yechimini kutmoqda.

Bir qator iqtisodchi olimlar o'z tadqiqotlarida davlat byudjetining tuzilishi, funksiyalari uning daromadlar manbalari va ularning tarkibi, xususan solikli va soliqsiz daromadlar to'g'risida fikr-mulohazalarini bayon qilgan.

Rus iqtisodchi olimlari davlat byudjetining soliqsiz daromadlari to'g'risida I.Yartsevaning ta'dqiqotlarida davlat byudjetining soliqsiz daromadlari huquqiy tartibga solish xususiyatiga ko'ra soliq tushumlaridan sezilarli farq qilishini, davlatning barcha darajadagi byudjetlarining soliqsiz daromadlarini huquqiy tartibga solish me'yoriy-huquqiy hujjatlarning butun majmuasi bilan amalga oshirilishi haqida yoritgan. Ya'ni soliqsiz daromadlarning tarkibi davlat Byudjet kodeksida belgilanishi hamda Moliya vazirligining tegishli buyrug'ida ko'rsatilishi ta'kidlangan. Davlat byudjetning daromadlaridan biri bo'lgan soliqsiz daromadlar shakllanishining o'ziga

xos turlari, o'Ichamlari va tarkibi an'anaviy ravishda tegishli moliyaviy yil uchun davlat byudjetto'g'risidagi qonunda belgilab borilishi bayon qilingan [1].

Darhaqiqat ko'zga ko'ringan iqtisodchi olimlardan biri bo'lgan T.Malikovning fikriga ko'ra davlat byudjeti daromadlarini soliq shaklidagi daromadlar, soliq bo'lmagan daromadlar, tiklanmaydigan tarzda o'tkaziladigan pul mablag'lari guruhiga ajratgan [2].

A.Vahobov va A.Jo'rayevlarning fikricha soliqsiz to'lovlarning solikli to'lovlar bilan o'xshashlik va farqli tomonlari, soliqsiz to'lovlar hududiy belgisi, shakllanish, jamlanish usuli va turlarini, shuningdek soliqsiz daromadlarni undirish asoslariga ko'ra ham bir qancha turlarini keltirib o'tgan [3].

A.Islamkulovning byudjetlararo mutanosiblikni ta'minlashda soliqlar tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borgan ilmiy izlanishlarida davlat byudjeti - davlatning yirik markazlashgan pul jamg'armasi bo'lib, davlat funksiyalari bajarilishini mablag' bilan ta'minlashga xizmat qiluvchi iqtisodiy manbaa ekanligini, shuningdek soliqsiz daromadlarga mahalliy davlat hokimiyati to'lov miqdorini o'rnatishini va uning nazoratini amalga oshirilishi bo'yicha o'z fikrlarini bildirib o'tgan [4].

Fikrimizcha, davlat byudjetining daromadlarni shakllantirishning asosiy maqsadi barqaror moliyaviy bazani shakllantirish sanalib, bu barcha darajadagi davlat hokimiyati organlariga o'z maqsad va funksiyalarini bajarishi, umumdavlat hamda mintaqaviy ehtiyojlarni qondirishga imkoniyat yaratadi. Byudjet daromadlarining maqsadi – byudjet xarajatlarini qoplash hisoblanadi. Shu bilan birga, xo'jalik subyektlari va aholi bilan o'zaro moliyaviy munosabatlarda hamda byudjetning daromad qismini undirishda mehnat mahsuldorligini oshirishga, resurslardan samarali foydalanishga, shu biln birga tushumlar ortishini rag'batlantiruvchi yo'llarni topish lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Byudjetni rejalashtirish yuqoridan pastga qarab amalga oshirilganda islohotlarni ishlab chiqish, amalga oshirish va ularning monitoringini yuritishda markaziy hukumat vazirliklari yoki idoralari bosh rolni o'ynaydi. Rejalashtirish pastdan yuqoriga qarab amalga oshirilganda asosiy "o'yinchilar" ayrim vazirliklar hisoblanadi. Ular hatto mazkur jarayonda ishtirok etish yoki ishtirok etmaslikni hal qilish imkoniyatiga ham ega bo'lishlari mumkin. Ularga maqsadlarga erishishning o'z usullarini ishlab chiqish huquqi beriladi. Mazkur yondashuvlarning ikkalasi ham o'z afzalliklari va kamchiliklariga ega. Markaziy hukumat ishtirokining cheklanganligi o'zgarishlarni amalga oshirishga jiddiy ehtiyoj yo'qligini anglatishi mumkin, lekin uning haddan tashqari faol aralashuvi shunga olib kelishi mumkinki, odamlar unumdorlikni takomillashtirish haqida emas, balki yangi qoidalarni qo'llashga doir yo'l-yo'riqlarni bajarish haqidagina o'ylaydilar.

Hukumatning iqtisodiy siyosatining asosiy vazifalaridan biri iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda barqarorlikni ta'minlashdir. Ilgari ushbu maqsad moliyaviy barqarorlikka qaratilgan bo'lsa, endi u o'rta va uzoq muddatli istiqbolda butun ijtimoiy-iqtisodiy tizimning izchil rivojlanishini ta'minlashga tegishli. Davlat organlari, shu jumladan moliyaviy rejalar va byudjet tomonidan uzoq muddatli prognozlarni shakllantirish va bajarish jarayoni ushbu siyosiy maqsadga erishishning asosiy mezonini bo'lib xizmat qiladi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni xalqaro metodologiyalar asosida ko'rib chiqish byudjetni rejalashtirishda yangi yondashuvlar va vositalardan foydalanishga imkon beradi va turli makroiqtisodiy omillar ta'sirini baholash asosida byudjet parametrlarining o'rta muddatli prognozlarni aniqroq qiladi. Davlat byudjetidagi islohotlarni tahlil qilar ekanmiz, hukumat tomonidan byudjet tizimiga o'rta muddatli byudjet amaliyotini joriy etish bo'yicha bir qator tizimli ishlar amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizda o'rta muddatli byudjet amaliyotiga o'tish uchun zarur shart-sharoitlar quyidagicha ko'rib chiqildi: dastlabki makroiqtisodiy islohotlar va yangi loyihalar va tashabbuslar resurslarni taqsimlashda strategik yo'nalishni talab qildi. Shu tarzda, valyuta kursini liberallashtirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida asosiy tarmoqlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, bojxona to'lovlarini optimallashtirish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni rejalashtirish. Qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish ko'zda tutilgan. Yillik byudjet doirasida o'zgaruvchan ustuvorliklar o'rtasida resurslarni qayta taqsimlash juda qiyin, chunki uni yillik rejalashtirish resurslarni taqsimlash bo'yicha oldingi qarorlarni tasdiqlashga qaratilgan. Buni hisobga olgan holda, mablag'larni uzoq muddatli asosda qayta taqsimlash kerak.

O'rta muddatli byudjet maqsadlarini shakllantirish jarayoni "yuqoridan pastga" (strategik komponent) va "pastdan yuqoriga" (mablag'larga talabni baholash komponenti) tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

"Yuqoridan pastga" o'rta muddatli makroiqtisodiy va byudjet maqsadlari belgilanadi va xarajatlar chegaralari tarmoqlar tomonidan belgilanadi. Iqtisodiyot va Moliya vazirligi makroiqtisodiy asos, o'rta muddatli fiskal siyosat tushunchasi asosida uch yil davomida davlat byudjetining umumiy ko'rsatkichlarini (daromadlar, xarajatlar, kamomadlar, davlat qarzlari) hisoblab chiqadi. Ushbu bosqichda barcha mavjud resurslarni baholash amalga oshiriladi, ya'ni soliq va soliqdan tashqari daromadlarni yig'ishning potensial darajasi, qarzlarni jalb qilish darajasi va kreditlarning mavjudligi, tashqi grantlar miqdori aniqlanadi. Daromadlar smetasi xarajatlar smetasi uchun resurs bazasi bo'lib xizmat qiladi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining 2020-2023 yillardagi (mlrd. so'm)

Ko'rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Davlat byudjeti daromadlari, Jami	132 938,0	164 680,3	201 863,8	231 721,3
<i>shuning uchun:</i>				
To'g'ridan-to'g'ri soliqlar	45 206,9	58 930,4	64 447,1	73 103,6
Daromad solig'i	28 712,2	38 363,3	37 649,9	40 778,9
Tovar aylanmasi solig'i	1 353,9	1 649,4	2 512,7	2 407,3
Jismoniy shaxslardan olingan daromad solig'i	15 140,8	18 917,7	24 284,5	29 917,4
Bilvosita soliqlar	46 428,4	56 290,5	71 390,2	83 325,8
Qo'shilgan qiymat solig'i	31 177,4	38 439,0	52 189,4	57 885,3
Aksiz solig'i	11 697,3	13 086,6	13 455	15 834,4
Bojxona boji	3 553,7	4 764,9	5 745,7	9 606,1
Resurs soliqlari va mol-mulk solig'i	21 257,0	23 036,4	23 912,8	28 079,5
Mulk solig'i	1 974,3	2 457,3	4 015,4	5 097,7
Yer solig'i	2 386,7	4 082,8	5 305,9	6 890,1
Yerning qa'ridan foydalanganlik uchun solig'i	16 417,1	15 811,9	13 887,4	15 300,3
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig'i	478,8	684,4	704,1	791,4
Boshqa daromad va soliqsiz tushumlar	20 045,8	26 423,1	42 113,7	47 212,5

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, davlat byudjeti daromadlari 2021, 2022- va 2023-yillarda 164680,3; 201863,8 va 231721,3 milliard so'mni tashkil etdi. Uning tarkibiga to'g'ridan-to'g'ri soliqlar, bilvosita soliqlar, resurs solig'i va mol-mulk solig'i va boshqa daromadlar hamda soliqsiz tushumlar kiradi. Agar biz o'rta muddatli byudjetlashtirish davlat moliyasi daromadlarini batafsil tahlil qilishda foydalansak, xulosa chiqarish va o'tgan ma'lumotlarni taqqoslash osonroq bo'ladi.

Ma'muriy islohotlar kontsepsiyasi mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishga qaratilgan uzoq muddatli stsenariylar asosida ustuvor tarmoqlar va tarmoqlarni innovatsion rivojlantirishning kelajakdagi modellarini shakllantirishga imkon beradigan strategik rejalashtirish tizimini yaratishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan "qisqa muddatli", "o'rta muddatli" va "uzoq muddatli" rivojlanish dasturlarini rejalashtirish, o'rta va uzoq muddatli strategik ustuvorliklarni shakllantirish, ularni amalga oshirish uchun o'rta muddatli tushunchalar va yo'l xaritalarini tayyorlash, uzoq muddatli davlatni ishlab chiqish va qabul qilish iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani rivojlantirish dasturlari tegishli davr uchun ularni moliyalashtirish manbalarini aniqlashni talab qildi. 2017-2021-yillarda davlat byudjeti tizimini boshqarish bilan bog'liq statistik faoliyatni tashkil etish samaradorligini, statistik ma'lumotlar sifatini va uni tizimli takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqishni tubdan yaxshilashni nazarda tutadi. Keng miqyosda

xalqaro talab va standartlarga javob beradigan statistik tahlilning zamonaviy usullari, ko'rsatkichlari, baholash mezonlari va hisobot shakllarini joriy etish rejalashtirilgan. O'rta muddatli byudjet amaliyotiga o'tish orqali statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning zamonaviy usullarini joriy etish vazifasi qo'yildi.

Yillik byudjet loyihasi uch yillik davrning birinchi yiliga to'g'ri keladi. Bu byudjet loyihalarining barqarorligini va ularning natijalarini bashorat qilish, xatarlarni boshqarish qobiliyatini ta'minlaydi va xarajatlarning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish orqali o'zgaruvchan sharoitlarga tezda moslashish imkoniyatini beradi. To'g'ri hisob-kitoblar asosida ishlab chiqilgan usullar byudjet daromadlarining o'rta muddatli prognozini makroiqtisodiy rivojlanish jarayonlari bilan bog'lashni, ijtimoiy-iqtisodiy prognozning asosiy jarayonini tanlashni, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'zgarganda byudjetning prognoz qilinayotgan daromadlarining barqarorlik darajasini baholashni osonlashtiradi.

Umumiy byudjet ko'rsatkichlarini hisoblash metodologiyasi ("yuqoridan pastgacha") turli makroiqtisodiy omillar ta'sirini baholash asosida byudjet parametrlarining mumkin bo'lgan qiymatlari oraliq'ini aniqlashni nazarda tutadi.

Iqtisodiyot va Moliya vazirligining vazifalari hamda vakolatlarini hisobga olgan holda xalqaro amaliyotda o'rta muddatli byudjet maqsadlarini ishlab chiqish uchun mas'ul organ hisoblanadi.

O'rta muddatli byudjet amaliyotiga o'tish moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi va Markaziy bankning o'rta muddatli makroiqtisodiy prognozlarni shakllantirish va 3 yil davomida soliq-byudjet siyosati kontseptsiyasini ishlab chiqish bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rta yoki uzoq muddatli byudjet amaliyotini rivojlantirmoqda. Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, kelgusi byudjet yili va keyingi ikki yil, jami 3 (uch) yil, iqtisodiy siyosat uchun eng mos va mos keladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, qoida tariqasida, byudjet 3 (uch) yillik istiqbol asosida shakllantiriladi. Ushbu davr uchun bir qator omillarni ta'kidlash kerak, shu jumladan:

1) dastlab qabul qilingan qarorlar rejalashtirilgan byudjet davri uchun byudjetning daromadlari va xarajatlariga ta'sir qiladi. Soliqlar va xarajatlarning dasturlari bo'yicha yangi qarorlar byudjet jarayonida qabul qilinadi va birinchi byudjet yilida unchalik ta'sir qilmasligi yoki umuman ta'sir qilmasligi mumkin, ammo ma'lum vaqtdan keyin davlat byudjetiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

2) ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va islohotlarning doimiy o'zgarishi va yangilanishi omili. Makroiqtisodiy darajada bandlik, inflyatsiya, narxlar dinamikasi va foiz stavkasi doimiy o'zgarish tendentsiyasiga ega va bu o'zgaruvchan xususiyatlar muqarrar ravishda davlat byudjeti daromadlari va xarajatlariga ta'sir qiladi. Byudjet loyihasini

ishlab chiqish va uni amalga oshirish jarayonida ushbu omillarni Real hayotga yaqinroq hisoblash va boshqarish muhimdir.

3) agar kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy jarayonlar kutilsa, ushbu hodisani oldini olish uchun tegishli choralar ko'rish mumkin.

O'rta muddatli byudjetlashtirish amaliyotida mamlakat aniq strategiya asosida moliyaviy rejalashtirish sohasida bir qator yutuqlarga erishmoqda. O'rta muddatli byudjetlashtirishning asosiy strategik vazifalari:

1) o'rta muddatli moliyaviy strategiyani ishlab chiqish;

2) daromadlar va xarajatlar bo'yicha ko'p yillik tahliliy baholash loyihagini tayyorlash;

3) byudjet daromadlari va xarajatlari balansiga rioya qilgan holda joriy va qabul qilingan majburiyatlar bo'yicha xarajatlarning tarkibiy tuzilishi balansini ta'minlash;

4) joriy va o'rta muddatli rejalarni muvofiqlashtirishni ta'minlash;

5) mintaqaviy byudjetni rejalashtirish subyektlarini mintaqaviy byudjetni moliyalashtirish to'g'risida qaror qabul qilish uchun zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash;

6) o'rta muddatli byudjetlashtirishning asosiy hujjati o'rta muddatli istiqbolli moliyaviy rejani shakllantirish va qabul qilish jarayonida qonun chiqaruvchi organlarning rolini belgilaydi;

7) o'rta muddatli moliyaviy reja ko'rsatkichlarini byudjet ko'rsatkichlariga qo'llash.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasida byudjet jarayonini tashkil etish asoslarining tahlili, uning me'yoriy-huquqiy asoslari va bosqichlari, shuningdek, mavjud bo'lgan holatlarni o'rganish, byudjet va uning prognozlash usullari ba'zi kamchiliklar borligini ko'rsatdi. Bu esa, Budjetni rejalashtirish amaliyotida budjet mablag'laridan izchil va samarali foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Byudjetni rejalashtirish bir yil bilan chegaralangan bo'lib, byudjet siyosatini joriy yildan keyin ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalari va maqsadlariga erishishga yo'naltirish uchun ko'p vaqt qolmadi. Binobarin, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda amalga oshirishga qaratilgan milliy va tarmoq dasturlari byudjet imkoniyatlaridan oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ярцева И. Классификация неналоговых доходов местных бюджетов и их роль на современном этапе бюджетной реформы // Экономика – 2010. – 131-136с.

2. Malikov T. Moliya. Darslik. –T.: "Iqtisod-moliya", 2023. –373 b.

3. Vahobov A., Jo'rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: "Sharq", 2021. –257-270 b.

4. ugli Mehmonaliev, A. G., & Khidirov, N. G. (2022). Social-economic significance, essence and theoretical-methodical basis of medium-term budget practice. *Science and Education*, 3(12), 991-996.

5. ugli Mehmonaliev, A. G., & Khidirov, N. G. (2022). Public finance management its modern problems. *Science and Education*, 3(11), 1075-1080.

6. Xidirov, N. G. I., To, I. A. O. G. L., Kenjayeva, N. B. Q., & Ruziqulova, D. U. Q. (2023). Davlat byudjeti daromadlar tarkibida to'g'ri soliqlarni ulushini oshirish masalalari. *Science and Education*, 4(12), 679-685.